AQSH ILMIY VA DAVRIY NASHRLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXINING DASTLABKI O‘RGANILISHI VA YORITILISHI

Otamurotova Munira G‘ayratovna
304-maktab
muniraotamurotova98@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu tezisda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida AQSH davriy matbuoti va ilmiy nashrlarida O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi va siyosiy jarayonlarining yoritilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, amerikalik sayyoh va diplomatlarning kundaliklari, diplomatik yozishmalari hamda O‘zbekiston hududlariga oid dastlabki ilmiy va publitsistik materiallarning yuzaga kelish omillari ko‘rib chiqiladi. Mazkur manbalarning O‘zbekiston tarixini AQSH ilmiy va jamoatchilik doirasida tanitishdagi tarixiy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar:*AQSH matbuoti, ilmiy nashrlar, O‘zbekiston tarixi, Markaziy Osiyo, XIX–XX asrlar, amerikalik sayyohlar, diplomatlar yozishmalari, etnografiya, arxeologiya, tarixiy manbalar.*

Аннотация.*В тезисе анализируется освещение истории, этнографии, археологии и политических процессов Узбекистана и Центральной Азии в американской периодической печати и научных изданиях во второй половине XIX – начале XX века. Рассматриваются дневники американских путешественников и дипломатов, дипломатическая переписка, а также первые научные и публицистические материалы о территориях современного Узбекистана. Раскрывается историческое значение этих источников в формировании представлений об Узбекистане и Центральной Азии в научной и общественной среде США.*

Ключевые слова:*американская пресса, научные издания, история Узбекистана, Центральная Азия, XIX–XX века, американские путешественники, дипломатическая переписка, этнография, археология, исторические источники.*

Abstract.*This thesis analyzes the coverage of the history, ethnography, archaeology, and political processes of Uzbekistan and Central Asia in American periodical and academic publications during the second half of the nineteenth and the beginning of the twentieth century. It examines the diaries of American travelers and*

diplomats, diplomatic correspondence, and early scholarly and journalistic materials concerning the territories of present-day Uzbekistan. The study also highlights the historical significance of these sources in the formation of knowledge about Uzbekistan and Central Asia in the academic and public spheres of the United States.

Keywords:*American press, academic publications, history of Uzbekistan, Central Asia, 19th–20th centuries, American travelers, diplomatic correspondence, ethnography, archaeology, historical sources.*

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida AQSHda Markaziy Osiyoga, jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududlariga oid ma’lumotlar turli gazeta va jurnallar, ilmiy nashrlar, sayohat kundaliklari hamda diplomatik yozishmalar orqali tarqaldi. Ushbu materiallar mintaqa haqidagi geografik, siyosiy, etnografik va arxeologik tasavvurlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Xususan, elchilar va konsullar tomonidan AQSH Davlat departamentiga yuborilgan ma’lumotlar mintaqadagi siyosiy jarayonlar hamda Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosati haqida axborot yetkazib bergan.

O‘sha davrda AQSHdagi ilmiy nashrlar orasida “Science” jurnali muhim o‘rin egallagan. Unda Markaziy Osiyoning tarixi, strategik joylashuvi, temir yo‘l qurilishi va arxeologiyasiga oid materiallar chop etilgan. Bu nashrlarning ahamiyati shundaki, Markaziy Osiyo haqidagi ma’lumotlar ilmiy muhitda muhokama qilinib, mintaqa to‘g‘risidagi bilimlarning tizimlashuviga yordam bergan.

1885-yil 1-mayda “Science” jurnalida Edward Channingning “Roads from India to Central Asia” va “The races of Central Asia” nomli maqolalari chop etilgan. Birinchi maqolada Hindistonni Markaziy Osiyo bilan bog‘laydigan savdo yo‘llari va Afg‘onistonning strategik ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Ikkinchi maqolada esa Afg‘oniston aholisi va qabilalaridagi boshqaruv tizimiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur maqolalar O‘zbekistonni bevosita markazga olmagan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoning geografik va siyosiy muhiti haqidagi AQSHdagi dastlabki ilmiy tasavvurlarni tushunishda muhim material hisoblanadi.

AQSHning “Scientific American” ilmiy-ommabop jurnalida ham Markaziy Osiyoga oid materiallar chop etilgan. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqaga oid ilk maqolalardan biri 1852-yil 13-noyabrda nashr etilgan bo‘lib, unda Sharq savdo mahsulotlari, jumladan, Buxoroda tayyorlangan jun ro‘mollar haqida ma’lumot berilgan. Mazkur material Buxoro hunarmandchiligi va mahalliy ishlab chiqarish an’analari haqida AQSH o‘quvchilariga ma’lumot yetkazgani bilan ahamiyatlidir.

Mintaqa haqidagi tasavvurlarning shakllanishida AQSH diplomatlari va konsullarining yozishmalari ham muhim manba bo‘lgan. 1870-yildan boshlab

AQSHning Rossiyadagi diplomatik vakili Eugene Schuyler Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar haqida ma’lumotlar yuborgan. 1872-yil dekabrda uning AQSH davlat kotibi Hamilton Fishga yo‘llagan ma’lumotlarida Rossiyaning mintaqadagi siyosati va mahalliy siyosiy vaziyatga oid fikrlar aks etgan. Keyingi diplomatik yozishmalarda Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar hamda shartnoma shartlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Diplomatik yozishmalarda transport va kommunikatsiya masalalari ham yoritilgan. Jumladan, 1888-yil 13-iyuldagi konsullik maktubida Kaspiy dengizini Samarqand bilan bog‘lovchi temir yo‘lning ochilishi haqida ma’lumot berilgan. Bunday xabarlar Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibidagi iqtisodiy va strategik ahamiyatini AQSHdagi diplomatik doiralarga yetkazishga xizmat qilgan.

1898-yildagi diplomatik yozishmalarda Samarqanddagi o‘lat epidemiyasi haqida ham ma’lumotlar aks etgan. Bu materiallar orqali AQSH diplomatik vakolatxonalari mahalliy ma’muriyatning kasallikka qarshi ko‘rgan choralarini kuzatib, tegishli ma’lumotlarni Davlat departamentiga yetkazgan. Shu jihatdan diplomatik hujjatlar nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va tibbiy tarix uchun ham qo‘shimcha manba vazifasini bajargan.

Markaziy Osiyoni ilmiy o‘rganishda amerikalik geolog Raphael Pumpellyning ekspeditsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Ekspeditsiya tarkibida arxeolog Richard Norton ham qatnashgan. U tadqiqotlari asosida 1905-yilda “Archaeological Remains in Turkestan” nomli materialni nashr ettirgan. Unda Balx, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Marg‘ilon, Toshkent va Qo‘qon hududlariga oid geografik, arxeologik va ijtimoiy ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu materiallar O‘zbekiston hududlarining moddiy va tarixiy merosini amerikalik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganish jarayonining muhim ko‘rinishlaridan biridir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida AQSHning davriy matbuoti, ilmiy nashrlari va diplomatik yozishmalarida Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Qo‘qon kabi hududlarga oid ma’lumotlar tobora ko‘paygan. Ushbu materiallarda mintaqaning siyosiy jarayonlari bilan bir qatorda savdo, hunarmandchilik, transport, etnografiya va arxeologiyasiga oid ma’lumotlar ham yoritilgan. Shu sababli AQSH matbuoti va ilmiy nashrlari O‘zbekiston tarixining dastlabki xorijiy o‘rganilish jarayonini tadqiq etishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolov V.Y. XIX–XX asr boshlarida Buyuk Britaniya va AQSHda Markaziy Osiyo (O‘zbekiston)ga oid tadqiqotlar. – Toshkent, 2024.

2. Channing E. Roads from India to Central Asia // Science. Vol. 5, No. 117. May 1, 1885.

3. Hill D.J. Plague suspected in Samarkhand // Public Health Reports. Vol. 13, No. 44. November 4, 1898. P. 1260.

4. Schuyler E. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. New York: Scribner, Armstrong & Co., 1876.

5. Norton R. Archaeological Remains in Turkestan. 1905.